

F. K. GRIS FAOLIYATI VA TURKISTONDA 1882-YILDA  
O‘TKAZILGAN TAFTISH ISHI XUSUSIDA

*Almanov Begali Mamatqulovich*  
*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti*  
*Tarix fakulteti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** F. K. Gris faoliyati va Turkistonda 1882-yilda o‘tkazilgan taftish ishi xususida manbalar asosida na’lumot berishga harakat qilingan.

**Аннотация:** предпринята попытка представить сведения о деятельности Ф. К. Гриса и инспекционной работе, проведенной в Туркестане в 1882 г. на основе источников.

**Abstract:** an attempt was made to provide information on the activities of F. K. Gris and the inspection work conducted in Turkestan in 1882 based on sources.

**Kalit so‘zlar:** F. K. Gris, Turkiston, Zarafshon okrugi, Amudaryo bo‘limi, Sirdaryo va Yettisuv, K.P.Kaufman, Gubernator.

**Ключевые слова:** Ф. К. Грис, Туркестан, Зарафшанский округ, Амударьинская область, Сырдарья и Еттисув, К. П. Кауфман, губернатор.

**Key words:** F. K. Gries, Turkestan, Zarafshan District, Amudarya Division, Syrdarya and Yettisuv, K. P. Kaufman, Governor.

Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo‘yicha ilk dasturiy xujjatlarning ishlab chiqilishida harbiy vaziyat omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular yangi xududlar bosib olinishi bilan yuzaga kelgan va qoida tarzida «muvaqqat» xususiyatga ega edi. Chunonchi, «Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to‘g‘risidagi nizom» 1867-yili «tajriba tarzida uch yilga» joriy qilindi. Undan tashqari, 1868-yilning iyunida «Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari», «Farg‘ona viloyatini boshqarish bo‘yicha 1873-yil muvaqqat nizom», «Amudaryo bo‘limini boshqarish bo‘yicha 1874-yil 21-may nizomi» ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi. Ularning barchasi uz faoliyatida «harbiy va ma‘muriy hokimiyatning birdamligi va uning bitta qo‘lda birlashtirilishini» tasdiqladi.

Podsho yorlig‘i K.P.Kaufmanga «barcha siyosiy, chegara va savdo-sotiq ishlarini hal qilish, qo‘shni mamlakatlarda muzokara olib borish va traktatlarni imzolash, qarorlar uchun shartlarni kelishish» vakolatini berardi. U o‘lkadan ayrim shaxslarni siyosiy sabablarga ko‘ra besh yilgacha bo‘lgan muddatga badarg‘a qilish va qarshilik ko‘rsatilgan taqdirda, ishni harbiy sudga oshirish xuquqiga ega edi. Gubernator aholiga solinuvchi soliqlar miqdorini belgilar, ajnabiylarni rus fuqaroligiga qabul qilar, kreditlarni taqsimlar, shu jumladan, tub aholiga mansub bo‘lgan shaxslarga o‘lim jazosi berish haqidagi xukmlarni (agar ular qozilik va biylik sudlari tomonidan

chiqarilgan bo'lsa) bekor qilish xuquqiga ega edi. Shunday qilib, general-gubernator o'zining yuridik jixatdan chegaralanmagan hokimiyatiga ko'ra, O'rta Osiyoning besh millionlik xalqini boshqarish huquqiga ega edi. Ushbu boshqaruv Rossiya amaldorlarining butun boshli iyerarxiyasi tomonidan harakatlantiriluvchi xiyla murakkab byurokratik mashina yordamida amalga oshirilardi.

Viloyat va o'lka miqyosida general-gubernator kanselyariyasi va viloyat boshqaruvlarining sudlov bo'limlariga ham sudlov funksiyalari berilgan edi. Ular jinoiy va fuqarolik sudi hamda uezd sudyalari qurultoylari palatalari xuquqi doirasida ish olib borardi. Kanselyariyaning sudlov bo'limi shikoyatlarni ko'rib chiqish funksiyasini ham bajarardi. Ushbu munosabat bilan general-gubernator kanselyariyasi sudga nisbatan, Girsning so'zlariga ko'ra, «adliya vazirligi o'z tasarrufidagi sudlarga nisbatan ega bo'lmagan» huquqlardan foydalanardi. Bundan tashqari, O'rta Osiyoda muvaqqat harbiy-sudlov komissiyalari ham faoliyat ko'rsatib, ular jinoiy ishlarni ko'rishda «harbiy qarorlar to'plami»ga amal qilardi. Bu komissiyalar huquqni chegaralash, mansabdor shaxslarning o'ldirilishi, rus aholisi tomonidan amalga oshirilgan talonchilik bosqinchilik va o'ta og'ir jinoyatlar, ruslar va tub aholi vakillari o'rtasidagi «hokimiyatga qarshi», «tartib va osoyishtalikga qarshi qilmishlar bo'yicha» ishlarni ko'rib chiqardi. Ishi ushbu sudlarda ko'rilgan shaxsning tag'diri to'laligicha harbiy amaldorlar istagiga bog'liq edi.

Uezd politsiyasiga «jamoat o'z-o'zini boshqaruvidan saylangan» shaxslar tayinlanib, ular faqat politsiya talablarini so'zsiz bajaribgina qolmay, o'zlari ham tartibni qo'riqlash bo'yicha mustaqil ravishda birlamchi choralar ko'rishlari lozim edi. U yoki bu xil jazoni belgilashda mustamlaka ma'muriyati amaldorlari juda ko'p hollarda xuquq doirasidan chetga chiqardilar. Jazoga tortish imkoniyati juda keng talqin qilinardi: «gapga kirmaganligi uchun», «ko'pollik qilgani uchun», «xurmatsizlik qilgani uchun», «buyruqni bajarmagani uchun» va v.h. Politsiya amaldorlari va politsiya vakolatlariga ega ma'murlar o'z ixtiyorlariga ko'ra, o'z foyda va manfaatlaridan kelib chiqib har qanday jazolashni uyushtira olardilar. Rossiya samoderjaviyesining jinoiy qonunchiligiga ko'ra, ular dastlabki tergovni amalga oshirardilar. Nazariyaga muvofiq, sudlanuvchining o'z iqrori rasmiyda hisoblanib, qolgan barcha dalillar ko'makchi xususiyatga ega edi. Politsiya amaldorlari ularning iqrorini «sug'urib olish uchun» hech narsadan tap tortmasdi. Dastlabki tergov jarayonidagi qiynoq va kaltaklashlarga chidayolmay, hatto aybsizlar ham qo'yilgan ayblarga iqror bo'lardilar. Ma'muriyat va politsiya organlari turmani muntazam nazoratda tutishardi. O'lkaning barcha yirik shaharlari va hatto qishloqlarida ham harbiy va harbiy bo'lmagan mahkamalar tasarrufida turmalar qurilgan edi. O'rta Osiyo o'lkasida turma qurish va ularning ishlab turishi uchun har yili chor g'aznasidan 70-80 ming rubl miqdorida mablag' ajratilardi.

Bunday taftish natijasida F.K.Girs tomonidan hisobot va «O'rta Osiyo o'lkasi

ustidan boshqaruvni tashkil qilishning bosh vazifalari to‘g‘isida» izoxnoma tuzildi. Ushbu xujjatlar 1884-yili chor xukumati farmoni bilan tuzilgan Davlat Kengashi a‘zosi graf N.P. Ignatev raisligidagi navbatdagi maxsus komissiyaga ko‘rib chiqish uchun topshirildi. Komissiya tarkibiga uzining asosiy vazifasini «O‘rta Osiyoda o‘tish davrida mavjud bo‘lgan nomaqbul boshqarish usuliga bardam berish» va «hokimiyatga harakat qilish uchun qonuniy asoslar taqdim etish, bunda uning ixtiyorida favqulodda holatlar uchun yetarli kuch va vakolatlarni qoldirish»dan iborat deb bilgan taniqli chor amaldorlari va turli mahkamalarning vakillari kiritildi.

Xullas, 1882-yil 8-mayda imperatorning Turkiston general-gubernatorligini taftish qilish to‘g‘risidagi farmoni e‘lon qilinadi. Taftish ishlariga rais qilib “Dasht komissiyasi”ning sobiq raisi, maxfiy maslahatchi F.K. Girs tayinlandi. 1883-yilda Girs taftish ishlarini tugallab, imperatorga general-gubernatorlik va unga qarashli tashkilotlarning ahvoli to‘g‘risidagi hisobotni, “O‘lkani boshqarish to‘g‘risidagi nizom loyihasi”ni qo‘shib taqdim etdi.

Endi, Girs Fyodor Karlovich hayoti va faoliyati haqida to‘xtalsak, Fyodor Karlovich 1824-yil 4-yanvarda tug‘ilgan. Boshlang‘ich va o‘rta maktabni tugatgach, oliy yuridik maktabda o‘qigan va 1844-yil 13-iyunda Senatning 5-bo‘limiga xizmatga kirgan. Shu tarzda Fedor Karlovichning siyosiy faoliyati boshlangan. Markaziy apparatda odiy xodim bo‘lib ish boshlagan yosh yigit keyinchalik u yerdan muhim vazifalarga tayinlab boshlangan. Xususan, uch yil Adliya vazirligida va Simbirsk fuqarolik sudi palatasi raisi, Pskov viloyati prokurori lavozimlarida ishlagan. 1857 yilda esa vazirlikning yuridik maslahatchisi lavozimiga ko‘tariladi. Ayni paytda Minsk jinoyat palatasi sudi raisi. 1857-yildan Novorossiysk general-gubernatorligi idorasining rahbari etib tayinlanadi.

Fedor Karlovich 1859-yil 29-sentabrda u imperator hokimiyatining faol davlat maslahatchisi lavozimiga ko‘tariladi. 1860-yilda uning imperator oldidagi xizmatlari uchun Samara viloyatida 2000 gektar yer beriladi va 1863-yilda u Ichki ishlar vaziri Kengashi a‘zosi etib tayinlandi. U 1863-yildan Tula va Kaluga viloyatlariga shahar ishi va dehqon islohotining qishloq xo‘jaligiga ta‘siri haqida ma‘lumot to‘plash uchun yuborilgan va bu vazifani muvaffaqiyatli uddalab, hukumat oldiga bajarilishi zarur bo‘lgan va kelgusida ancha istiqbolli bo‘lgan shahar ishi va dehqon xo‘jaliklar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan islohatlar dasturini taqdim etadi.

Shundan so‘ng Nijniy Novgorod, Qozon, Simbirsk, Samara va Saratov viloyatlariga iqtisodiy va ma‘muriy ishlarni taftish qilish, pomeshchiklar xo‘jaligi, zaxira do‘konlari va dehqonlar jamiyati tasarrufidagi mulklarni o‘rganish uchun yuboriladi. Bu taftish ishi natijasida hukumat mablag‘larining behuda sarflanayotgan ko‘pgini yo‘nalishlari ochib tashlanadi.

Shunday qilib, Girs Fedor Karlovich Rossiya imperiyasining yirik siyosiy va iqtisodiy mutaxassisi sifatida davlat ahamiyatiga molik komissiyalarga rais etib

tayinlanadi. Xususan, 1865-yilda u O'rta Osiyoga qirg'izlar hayotini o'rganish va dashtlarni boshqarishni qanday asoslarda yo'lga qo'yish kerakligini o'rganish bo'yicha komissiya raisi etib tayinlanadi. Uning boshchiligida komissiya tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomalar keyinchalik, O'rta Osiyo o'lkasi va dasht o'lkalarini boshqarish to'g'risidagi Nizomga asos bo'lib xizmat qildi.

1867-yil 15-iyulda u Peterburgda imperatorning xususiy maslahatchi, 1880-yil 30-avgustda esa haqiqiy xususiy maslahatchi lavozimiga ko'tariladi. 1882-yilda O'rta Osiyo general gubernatorligini tekshirish, taftish o'tkazish va boshqaruv ishlarini qayta ko'rib chiqish uchun O'rta Osiyoga maxsus komissiyaga boshliq etib yuboriladi. Uning taftishlari natijasida O'rta Osiyo general gubernatorligining yakka hokimiyatchilikga asoslangan siyosiy va ma'muriy tartiblari va boshboshdoqliklar ochib tashlandi. Ushbu taftish natijalari xulosasi va ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida O'rta Osiyo o'lkasi boshqaruvi masalasida ko'pgina o'zgarishi bo'ldi.

Mahalliy maslahatchi F.Girs boshchiligidagi Dasht Komissiyasi (1865-1867) O'rta Osiyo o'lkasida qanday boshqaruv tizimi o'rnatish lozimligi haqida bir qancha takliflarni podshoga bayon qildi. Podsho Aleksandr II bu loyihalarni «O'rta Osiyodagi mulklarni o'zlashtirish boyicha Mahsus qo'mita» diqqatga havola qildi. Bunday amaldorlar O'rta Osiyo aholisiga o'ta past nazar bilan qarab, o'lka aholisini «yovvoyilik va qoloqlikda» ayblab, boshqaruvning faqatgina markazlashtirilgan harbiy hokimiyati joriy etilishi zarur degan xulosaga keldilar. Bu hokimiyat rasman «harbiy halq boshqaruvi» deb nomlangan bo'lsada, amalda to'laligicha harbiylar qo'lida edi.

Umuman olganda, o'lka rahbariga harbiy, siyosiy va ma'muriy sohalarda cheksiz vakolatlar berilgan edi. Xufiya maslahatchi F.Girs boshchiligidagi taftish komissiyasi ham buni alohida qayd etgan, ya'ni «...kanselyariya o'ziga xos bo'lmagan va qonunga xilof hal qiluvchi bosh mahkamalik nuqtasini egallagan» edi<sup>1</sup>. Markazda uning faoliyati faqat Rossiya harbiy vaziri tomonidan nazorat qilinardi. Viloyatlardagi maxalliy ma'muriyatni harbiy gubernatorlar boshqarardi. Ular bir vaqtning o'zida u yoki bu viloyatda joylashtirilgan qo'shin sonidan kelib chiqib, korpus yoki diviziya qo'mondonlari maqomiga ham ega edilar. Masalan, Yettisuv viloyatida harbiy gubernator bir vaqtning o'zida Yettisuv qazaqlar qo'shinining atalar ham edi. Xodimlar Harbiy vazir, Ichki ishlar vaziri va O'rta Osiyo general-gubernatori bilan oldindan kelishgan holda yuritilar edi.

F.K.Girs o'zining bo'lis va qishloq ma'muriyati faoliyati ustidan o'tkazilgan taftish bo'yicha hisobotida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: «Sirdaryo viloyatidagi 109 bo'lis boshqaruvchisidan uch yil ichida 38 kishi bo'shatilgan bo'lib, bu 35% ni yoki yiliga 13 taga yaqin holatni tashkil qiladi». Bunday ma'lumotlarni O'rta Osiyoning

<sup>1</sup> Гирс. Ф.К. Отчет по ревизии Туркестанского края. Спб., 1888, Стр. 10., Свод законов Российской империи. Спб., 1892, 11-т., 19-бет.

boshqa viloyatlari bo'yicha ham keltirish mumkin. Quyi ma'muriyatlarda ishlovchi amaldorlar ko'pincha o'z xizmat mavqelarini suiiste'mol qilardilar. Ularning poraxo'rliq qonunga xilof yig'imglar olish, aholidan yig'ilgan soliqlarni o'zlashtirish, o'ziga yoqmagani kishilardan o'ch olish bilan shug'ullanganidan dalolat beruvchi juda ko'p faktlar ma'lum. Bo'lis boshqaruvchisi va oksoqollik lavozimlari ko'pda qo'li egri kishilarni o'ziga tortardi. Bo'lis va qishloq ma'muriyatiga saylovlar ko'pincha, ularga o'z nomzodlarini o'tkazishga urinuvchi turli guruhlar o'rtasida keskin kurash bilan o'tardi. «Bo'lis boshqaruvchisi kursisini egallashga urinish, - deb yozadi F.K.Girs uzining hisobotida, - bir tomondan xiyla yirik bo'lgan maosh miqdori, ikkinchi tomondan esa unga butun bo'lisda soliq yig'ish huquqi berilganligi bilan izoxlanib, u noqonuniy yig'imglarni juda oson yig'ib olishi, to'plangan pullarni g'aznaga kech topshirishi va hatto ba'zan ularni yashirib qolishi ham mumkin. Bundan tashqari, bo'lis boshqaruvchisi uziga berilgan huquqqa ko'ra (1867-yilgi «Nizom «- ning 112§) 3 so'mgacha miqdorda jarima solishi mumkin. Uning bu boradagi faoliyatini, ayniqsa, ko'chmanchi aholi yashovchi joylarda nazorat qilishning mutlaqo iloji yo'q», deb yozgan.

N.P.Ignatev komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha podsho tomonidan 1886-yil 12-iyunda rasman tasdiqlandi va qonuniy akt tusini olib, oz-moz 1886-yilgi yangi me'yoriy xujjatda «harbiy xalq» boshqaruvining asosiy prinsiplari saqlanib qoldi. Shu bilan bir vaqtda u maxalliy ma'muriyatning mahkama yo'nalishi, sud amaliyoti soxasidagi xuquqlarini chegaraladi va bu chegaralashni hokimiyatning politsiya va jazoga tortish funksiyalarini kengaytirish yo'li bilan kompensatsiya qildi. 1886-yilgi «Nizom»ga ko'ra O'rta Osiyo boshqaruv tuzilmalari tarmog'i yangi organ - Turkiston general-gubernatori Kengashi bilan to'ldirildi. Unga viloyatlarning harbiy gubernatorlari, general-gubernator Kanselyariyasining boshqaruvchisi, O'rta Osiyo harbiy okrugi shtabining boshlig'i, G'azna va Nazorat palatalarining boshqaruvchilari majburiy tarzda a'zo edilar. Kengashga dastlab general-gubernator, 1900-yildan boshlab esa uning yordamchisi raislik qildi. Kengashga boshqaruv amaliyoti bilan bog'liq masalalar yuzasidan qonunlar taklif qilish huquqi berildi. Bundan tashqari u umumiy ma'muriy xususiyatga ega bo'lgan va yer-soliq qurilishi, fuqarolarning majburiyatlari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqar edi.

F.K. Girs 1888-yilda Kavkazga dunyoviy hokimiyat va arman ruhoniylari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun xalq ta'limini nazorat qilish uchun yuborilgan. Biroq, Kavkazda Fedor Karlovich botqoq isitmasi bilan kasallangan va shundan uning salomatligi yomonlashgan. Salomatligi tufayli muhim davlat lavozimlaridan ketishga majbur bo'ladi. Shunday bo'lsada, Sankt-Peterburgga qaytib kelgach, u Evangelist-lyuteran konsistoriyasining prezidenti etib tayinlanadi. 1891-yil 15-yanvarda Girsning ahvoli og'irlashib, butunlay kasal bo'lib qoladi va 23-yanvarda vafot etadi. U Sankt-Peterburgda Novodevichy monastirida dafn etilgan.

Girs Fedor Karlovich Sanktbeterburgning eng yuqori ordenlariga ega edi. Birinchi darajali Stanislav (1866), Birinchi darajali Anna (1868), Ikkinchi darajali Vladimir (1871), Oq burgut (1875) va Aleksandr Nevskiy (1882, olmos belgilari 1884) bilan mukofotlangan.

F.K. Girs taftishlari natijasida Turkiston o'lkasi boshqaruv ishlarida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Volost boshliqlari va ularning yordamchilari aholi tomonidan uch yilga saylangan hamda harbiy gubernator tomonidan tasdiqlangan. Volost boshqaruvchilari sud hukmlarini ijro etgan, aholining kelib-ketishini nazorat qilgan hamda soliqlarning o'z vaqtida yig'ilishini ta'minlagan.

O'rta Osiyodagi mustamlaka boshqaruvi 1898-yilgacha "harbiy-xalq boshqaruvi", undan keyin esa "ma'muriy politsiya boshqaruvi" deb atalgan bo'lsa ham uning mohiyati mazmunan o'zgarmagan. Barcha vakolatlar avvalo, genral-gubernator, qolaversa, u boshchiligidagi rus ma'muriyati qo'lida to'plangan bo'lib, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoda o'zbek davlatchiligi va boshqaruvining barcha ko'rinishlarini butunlay yo'qotish va ruscha idora usulini qat'iy joriy etish bo'yicha izchil faoliyat olib bordi. Ma'muriy boshqaruv tizimi ana shu maqsadga qaratilib, buning uchun barcha choralar ko'rilgan edi<sup>2</sup>.

Rossiyadan Turkistonga "ortiqcha" aholini ko'chirish Rossiya imperiyasi uchun bu yerda strategik jihatdan mustahkamlanib olish, mustamlakachilik tartiblarini o'rnatish, o'lkada tayanch punktlarini kuchaytirish uchun zarur edi. Dastlab ruslarni O'rta Osiyoga ko'chirib keltirish siyosati majburiy amalga oshirilgan. Keyinchalik, ixtiyoriy ko'chib keluvchilarning soni tobora ko'payib borgan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ko'chib kelganlarning 43,1 foizi mol-mulksiz, 37,8 foizi pulsiz edilar. Ko'chib kelgan dehqonlarga o'rtacha 38,8 so'm miqdorda pul berilgan.

Markaziy Rossiyadan O'rta Osiyoga doimiy yashash uchun ko'chib keluvchilarning soni yildan – yilga ko'payib bordi. Jumladan, manbalarga ko'ra 1875-yildan, 1890-yilgacha O'rta Osiyoga 1300 ta oila ko'chirilib, 19 ta rus qishlog'i paydo bo'lgan bo'lsa, 1891-1892 yillar Rossiyada ocharchilik kuchaygan vaqtda bu qishloqlarning soni 25 taga yetdi. XIX asrning oxirlarida o'lkada 116 ta rus posyolkalari qurilib, ularda 70.745 kishi yashagan bo'lsa, XX asr boshlariga kelib, O'rta Osiyodagi rus aholisining soni 197.420 kishiga yetgan.

Turkiston general gubernatorligiga qarashli Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Ashxobod yirik shaharlardan sanalsa, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan Chimkent, O'rta Osiyo, Xo'jand, Jizzax, Kattaqo'rg'on kabi shaharlar ham o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan shaharlardan hisoblangan. Bosqinchilarning O'rta Osiyoni mustamlakaga aylantirishi barobarida Kazalinsk, Petro-Aleksandrovsk, Skobelev, Chernyayevka kabi shaharlar va aholi turar joylari

<sup>2</sup> Тиллабоев С. Туркистон ўлкасининг ..., 13-б.

barpo etildi. Bosib olingan shaharlarda ruslar yashaydigan alohida turar-joylar barpo etildi va shaharlar Yangi hamda eski shaharlar qismlarga ajratildi. Eski shahar aholisining yangi shaharlar hududlariga o'tishlari qat'iy ta'qiqlab qo'yildi<sup>3</sup>. Bu ham milliy kamsitishning bir ko'rinishi edi. Yangi shaharlarda aholining yashashlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. shaharlarda rus millatiga mansub fuqarolarning savdo-sotiq qilishlari uchun katta imtiyozlar berildi. Aksincha, musulmon fuqarolarining iqtisodiy jihatdan kuchayib ketmasliklari uchun turli-tuman choralar ko'rilib turildi.

Turkiston o'lkasida shaharlar boshqaruviga mahsus e'tibor XIX asrning 70 yillaridan boshlab kuchaydi. «shaharlar Nizomini qo'llash» bo'yicha ishlab chiqilgan qonun loyihasi 1872-yilda Sirdaryo viloyati boshqarmasida ko'rib chiqildi va 1877-yildan boshlab bu Nizomni qo'llash haqida qaror qilindi. Bu Nizom bosib olingan shaharlardan faqatgina Toshkent va Olmoata shaharlariga nisbatan qo'llanildi.

Toshkent o'zining harbiy, strategik va iqtisodiy jihatdan tutgan o'rni va joylashuviga asosan O'rta Osiyo o'lkasi shaharlari orasida alohida ahamiyatga ega edi. Shuning uchun ham Toshkent shahri general-gubernatorlikning markazi etib belgilangan edi. 1877-yilda mahsus muvaqqat komissiya tuzilib, Toshkent shahri dumasi saylovlari uchun mahsus tartiblarni belgilab chiqdi. Bunga ko'ra, Dumaga saylovchilar mol-mulklariga asosan uch toifaga ajratildi. Yetarli miqdorda mulk bo'lmaganlar saylov huquqidan mahrum etildi. 2400 saylovchi ishtirokida bo'lib o'tgan saylovda shahar Dumasi va boshqarmasi saylandi. Bunda rus noiblari uchun uchdan ikki qismi o'rni ajratildi.

Shahar boshqaruv faoliyatini nazorat qiluvchi harbiy gubernatori boshchiligidagi viloyat idorasi tuzildi. 1888-yilda imperator tomonidan Toshkent shahrini boshqaruv ishi ma'qullandi va shu bilan birga uni nazorat qilish general-gubernatorga yuklatildi. Ichki ishlar vaziri huquqi harbiy okrug qo'mondoni zimmasiga yuklatildi. Duma oqsoqoli harbiy vazir tomonidan tayinlangan va 1877-1907 yillarda bu vazifani hokim to'raning o'zi bajargan. Shahar ma'muriy politsiya tartiblari asosida boshqarilgan.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi agrar siyosatidan ko'zlagan asosiy va bosh maqsadi o'lkani Rossiya manfaatlari uchun xizmat qiluvchi xom-ashyo bazasiga aylantirish va eng serhosil yerlar joylashgan hududlarga rus dexqonlarini keltirib o'rnashtirish edi. Shuningdek, Rossiya imperiyasi yer suv munosabatlari O'rta Osiyoda o'z hukmronligini mustahkamlash va uning imkoniyatlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishni ko'zda tutgan edi<sup>4</sup>.

Bu davrda Rossiya kapitalini Turkistonga kirib kelishi munosabati bilan o'lkada kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllanib boradi, ishlab chiqarishdagi yangi munosabatlar tufayli komunizm feodal tartiblari va an'anaviy xalq hunarmandchiligining zaminiga zil ketib, jamiyat ijtimoiy tarkibida yo'llanma mehnat

<sup>3</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. T.2. Ташкент, "Sharq", 2010. Б. 44.

<sup>4</sup> O'zbekistonning Yangi tarixi.1-kitob., Turkiston Rus mustamlakachiligi davrida. T.: «Sharq»2000 Б. 225.

resurslari va mahalliy burjuylar hamda millat va vatan taqdiri to'g'risida qayg'uruvchi milliy ziyolilar tabaqasi paydo bo'ladi. Mulk egaligining xususiy, davlat, vaqf mulki tartibi saqlanadi, mahalliy aholi ma'naviy hayotining mafkurasi sifatida islom olami yo'nalishida davom etadi. 1886 -yilgi nizomga ko'ra, rus dexqonlarning O'rta Osiyoga ko'chib kelishlari uchun katta imtiyozlar berildi. Shuningdek, bu nizomga ko'ra, «bo'sh yotgan davlat yerlariga» birinchi navbatda harbiy xizmatdan bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni qoyish ko'zda tutildi.

Imperiyaning O'rta Osiyodagi yer suv masalalariga doir siyosatida O'rta Osiyoda barcha yerlar davlat mulki deb e'lon qilindi. O'troq mahalliy aholiga yer merosi yakka jamoa ekanligi tariqasida, ko'chmanchi aholiga esa azaliy dehqonchilik odatlariga rioya etilgan holda, muddati cheklanmagan holda jamoa bo'lib foydalanish uchun topshirildi. O'troq aholi yashaydigan joylarda yer, undan amalda foydalanganga biriktirib qo'yildi. Dastlab vaqf yerlariga soliq joriy etilgan bo'lsa, keyinroq bu mulklar butunlay tugatilib yuborildi. Shahar tashqarisida mahsus ko'chiruv fondlaridan tashqari rus aholisiga yer ajratish ta'qiqlandi.

Volost asosini mingdan ikki minggacha xonadon tashkil qilsa, ovul jamoalarini yuzdan ikki yuzgacha bo'lgan o'tovlar aholisi tashkil etgan. Bu bilan ko'chmanchi aholi o'rtasidagi urug'chilik asosidagi bo'linish barham topdi. Bu siyosat hokimiyatga soliqlarni belgilash va yig'ib olishda ham qo'l kelib uni takomillashtirishga harakat qildi.

1886-yilgi « Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom»ga ko'ra o'troq aholining bir bosqichli boshqaruv tizimi bekor qilindi va ikki bosqichga aylantirilib, oqsoqolliklar volostlarga birlashtirildi. Ovul jamoalari va oqsoqollar vakillari yig'ini barcha saylovchilar yig'ilishi bilan almashtirildi. Aholi saylovlar yo'li bilan volost va oqsoqolliklarga mingboshlarni saylardi. Mingboshi volost boshqaruvchisi bo'lib, qishloq, ovul oqsoqoli tomonidan uch yil muddatga saylangan. U o'z faoliyatini rus mustamlakachi ma'muriyati tasdig'idan o'tgandan so'nggina boshlagan. Aholining «qirg'izlar va sartlar» iborasi bilan atash 1886-yilgi Nizomga ko'ra «o'troq va ko'chmanchi» tarzida o'zgartirildi.

Volost boshqaruvchisini saylovchilar vakillarining qurultoyi saylagan. Bunda ikki nomzod ko'rsatilib, ikkinchisi uning muovini bo'lgan. Bu nomzodlar harbiy gubernator tomonidan tasdiqlanmasa, bekor qilingan va boshqasi tayinlangan yoki harbiy gubernator ko'rsatgan shaxs bu vazifaga kirishgan. Shu tariqa rus mustamlakachi hokimiyati qishloqlardagi boshqaruv faoliyatini ham o'z qo'lida mustahkam saqlab turgan.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olgach, bu yerda o'z manfaatlarini oshirish borasida turli siyosatlar va tadbirlarni amalga oshira boshladi. Mustamlaka hukumatning amalga oshirgan ishlaridan biri O'rta Osiyoda temir yo'lining barpo etilishi bo'ldi. O'rta Osiyoda temir yo'l ikki asosiy maqsadni harbiy strategik va



iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlab qurildi.

Harbiy strategik nuqtai nazardan olsak, o‘lkaning qay bir yerida mustamlakachilikka qarshi kurashlar yuzaga kelmasin, uni bostirish uchun harbiy kuchlarni safarbar etish va yetkazib berish, mustamlaka hokimiyatini saqlab turishda harbiy soha imkoniyatlarini kengaytirish ko‘zda tutilgan. Keyingi yillarda ko‘plab yetishtirilayotgan xom-ashyolar va yer osti va yer usti boyliklarini ko‘plab miqdorda va tezroq Rossiya hududlariga yetkazib borish iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlagan edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Гирс. Ф.К. Отчет по ревизии Туркестанского края. Спб., 1888, Стр. 10., Свод законов Российской империи. Спб., 1892, 11-т., 19-бет.
2. Тиллабоев С. Туркистон ўлкасининг ..., 13-б.
3. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. T.2. Тошкент, “Sharq”, 2010. Б. 44.
4. O‘zbekistonnig Yangi tarixi.1-kitob., Turkiston Rus mustamlakachiligi davrida. T.: «Sharq»2000 Б. 225.